

ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA SYUJET VA USLUB YANGILANISHI.

*ANDIJON IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
BOSHLANG'ICH TA'LIM YÓNALISHI
1-KURS TALABASI ABDULLAJONOVA MUSLIMA
ILMIY RAHBAR: QANOATOVA NAZOKATXON.*

Annotatsiya

Adabiyot insoniyat tamaddunining ilk bosqichlaridan oq vujudga kelgan beba ho ma'naviy meros sifatida bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda taraqqiy etib bormoqda. So'nggi yillarda yaratilayotgan hikoyalar mazmuni, syujeti va uslubiy yondashuvi bilan ilgari yaratilgan namunaviy asarlardan sezilarli farq qiladi. Ushbu maqolada zamонавиy o'zbek hikoyalaridagi postmodernistik elementlar, hikoya janrida syujet va uslub yangilanishi, shuningdek, A. Yo'ldoshev, A. A'zam, U. Hamdam kabi yozuvchilarining asarlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: postmodernizm, hikoya, syujet, uslub, obraz, realizm, neomodernizm, struktura.

Kirish

O'zbek adabiyoti taraqqiyotining har bir bosqichi, ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davr, o'zining keskin syujet burilishlari, adabiy-estetik talqinlaridagi yangilanishlar, hamda uslubiy qidiruvlar bilan ajralib turadi. Jumladan, zamонавиy o'zbek hikoyachiligi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yangi bir bosqichga ko'tarildi. Bu davr hikoyalarida hayotning noaniq, murakkab va paradoksal jihatlari ko'proq yoritila boshladi. Avvalgi davr sotsrealistik yondashuvarlar o'rnini postmodernistik va ekzistensialistik uslubiy izlanishlar egalladi. Bu jarayon faqat shakl emas, balki mazmuniy o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi.

Adabiyotshunos olima Dilorom Karimova "Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi taraqqiyot bosqichlari" nomli tadqiqotida ta'kidlaganidek, 1990-yillardan boshlab o'zbek hikoyachiligi "inson ichki olamini tahlil qilish, individual psixologiyani ochib berish, ramziy ifodaviy vositalardan foydalanish" tomon yo'nala boshladi (Karimova D., Zamонавиy o'zbek hikoyachiligi, T.: Fan, 2014, 23-bet). Bu esa hikoyaning syujeti va uslubiy tuzilishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Endi hikoyalarda voqealar zanjirining silliqligi emas, balki ichki ziddiyatlar, ong oqimi va ichki monologlar orqali berilgan tuyg'ular muhim o'rinni egallay boshladi.

Jahon adabiyotidagi postmodernistik yondashuvlarning o'zbek adabiyotiga ta'siri, xususan, Jorge Luis Borges, Franz Kafka, Albert Kamyu kabi yozuvchilarining falsafiy-estetik g'oyalari o'zbek muhitida ham ijodiy izlanishlarga turtki bo'ldi.

O'zbek yozuvchilari – Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Muhammad Ali, Nurulloh Muhammad Raufxon, Hamid G'ulom va boshqalar zamonaviy hikoya janrida yangicha nafas olib kirgan ijodkorlardir. Ularning hikoyalarida an'anaviy voqelikka yangicha qarash, tasvirning ichki falsafiy qatlavini ochish, uslubda ramz, istehzo, pastish va kollaj kabi badiiy vositalardan foydalanish sezilarli darajada kuchaydi.

Bundan tashqari, zamonaviy o'zbek hikoyachiligidagi "ko'zga ko'rinas qahramonlar" — ya'ni voqealar markazida bo'limgan, biroq ma'naviy yukga ega obrazlar orqali ijtimoiy muammolarni yoritish tendensiyasi paydo bo'ldi. Bu jihatni adabiyotshunos N. Yo'ldoshev ham alohida ta'kidlaydi: "Bugungi hikoyada hikmat, ramz, kinoya, ichki psixologizm syujetdan ustun qo'yilmoqda" (Yo'ldoshev N., Adabiy tafakkur va tanqid, T.: Akademnashr, 2020, 61-bet).

Shu bois, zamonaviy o'zbek hikoyalarining syujeti endi klassik "kirish-rivojlanish-avj-ziddiyat-yakun" formulasidan voz kechmoqda. Ular o'quvchini mantig'iy emas, ruhiy sarguzashtga chorlaydi. Bunda yozuvchining uslubi – uning ifoda vositalari, til ohangi, jumla qurilishi, tafakkur sur'ati – syujetning o'ziday muhim o'rin tutadi.

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek hikoyalaridagi syujet va uslub yangilanishlari adabiy namunalarda tahlil qilinadi, ularning g'oyaviy-falsafiy talqini, hamda badiiy shakllanish yo'nalishlari aniqlanadi. Shu orqali yangi o'zbek adabiy tafakkurining yo'nalishlari haqida xulosaga kelinadi.

Zamonaviy hikoyada yangilanish: janr, syujet va uslub

2012 yilda e'lon qilingan hikoyalarda kuzatilgan o'ziga xos jihat shundaki, ularda xalq og'zaki ijodi tajribalari, mumtoz adabiyot an'analari va jahon prozasining zamonaviy uslublari sintezda namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, A. Yo'ldoshevning "Puankare" asari bu borada yorqin misol bo'la oladi. Asar neorealizm, neomodernizm va postmodernizm elementlarining uyg'unligida yaratilgan bo'lib, unda ilmiy-falsafiy jumboq asosida syujet qurilgan. Asarning turli talqinlarga sabab bo'layotgani uning noan'anaviy uslubda yozilganidan dalolat beradi.

Ammo asarni to'laqonli postmodernistik deb baholash murakkab. Chunki unda postmodernizmga xos fragmentarlik, irodiysizlik, mualliflik pozitsiyasining yo'qligi kabi xususiyatlar to'liq aks etmaydi. Shunga qaramay, asarda tarixiy-ilmiy asos bilan badiiy tafakkurning uyg'unligi mavjud bo'lib, bu jihatni uni alohida e'tiborga molik qiladi.

Ahmad A'zam hikoyalarida ijtimoiy-psixologik tahlil

Ahmad A'zamning "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasi jamiyat va inson o'zaro munosabatlarining chuqur psixologik talqini bilan ajralib turadi. Bosh qahramon o'z soyasini yo'qotganini o'zining haddan tashqari o'qiganligi va hissiyotlarga berilishida

deb biladi. Bu holat orqali muallif zamonaviy insonning ruhiy holati, o‘ziga bo‘lgan ishonchszilik, jamiyat ta’siriga nisbatan ojizligi kabi muammolarni ohib beradi.

Ahmad A’zam hikoyalarining yana bir muhim jihat – oddiy hayotiy holatlar orqali katta g‘oyalarni ilgari surishidir. Masalan, “Oyning gardishi” hikoyasida ota-onamehrining inson hayotidagi o‘rni, ilmlli jamiyatga intilish g‘oyalari yoritiladi. Bu hikoyalar orqali muallif o‘quvchini o‘z hayotini, atrofdagilar bilan munosabatini qayta tahlil qilishga undaydi.

Ulug‘bek Hamdam hikoyalaridagi realizm va ruhiy kechinmalar

Ulug‘bek Hamdamning “To‘lin oy qissasi” to‘plamidagi hikoyalar real hayot voqealariga asoslanib, inson ruhiy kechinmalarini teran tasvirlaydi. “Bir payola suv” hikoyasi inson istaklari, hayotdagi tanlovlар va natijalar haqida chuqur falsafiy mushohada uyg‘otadi. Hikoyada insonning o‘z xohish-istiklari yo‘lida nimalarni qurban qilishi, ammo ba’zan bu istaklar sarob bo‘lib chiqishi aks ettiriladi.

“Vatan” hikoyasida esa vatanparvarlik, jasorat, maqsad sari qat’iy intilish motivlari ilgari suriladi. Qahramonlar obrazida fidoyilik, qahramonlik sifatlari real tasvirlangan bo‘lib, bu hikoyalar o‘quvchining ongiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi.

Xulosa

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligidagi syujet va uslub yangilanishlari — bu adabiy jarayonda yuz berayotgan tabiiy va zarur transformatsiyalarning yaqqol ifodasidir. Hikoya janrining shakl va mazmun jihatidan yangilanishi birinchidan, davr talablari, ikkinchidan esa ijodkorning individual estetik qarashlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Syujetning an’anaviy qat’iy tuzilmasidan voz kechilib, o‘rniga noan’anaviy, epizodik, ramziy va ichki monologlarga asoslangan syujet qurilishi kirib kelgani hikoyaning zamonaviy adabiy tafakkurga moslashganligini bildiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi o‘zbek hikoyasi avvalgi davrlardagi tashqi voqeaboplidan ko‘ra ko‘proq inson ichki olami, ong oqimi, ekzistensial izardiroblar, jamiyatdagi yolg‘izlik, ma’naviy inqiroz holatlarini ko‘rsatishga harakat qiladi. Bunday yondashuvda syujet xotiraning yorig‘i bilan almashadi, vaqt tushunchasi chiziqli emas, balki tsiklik yoki parchalangan holatda namoyon bo‘ladi. Jumladan, Erkin A’zamning “Hayrat”, “Sandiq”, Muhammad Alining “Qor odam”, Xurshid Do‘stmuhhammadning “Bir kunlik dunyo” kabi hikoyalarida bu tendensiylar yaqqol namoyon bo‘ladi.

Uslub jihatidan esa, zamonaviy hikoya uslubiy kollaj, intertekstual murojaatlar, ramziy ma’nolar, parodiya, kinoya, irodi tilda fikr berish, badiiy psixologizm orqali boyitilgan. Adabiyotshunos A. Jo‘rayevning ta’kidlashicha: “Bugungi o‘zbek hikoyasi tilda emas, ma’noda chuqurlik izlayapti. Bu esa uslubni g‘oyaning eng kuchli quroliga aylantirmoqda” (Jo‘rayev A., Zamon ruhi va adabiy tafakkur, T.: Yangi asr avlod, 2022, 109-bet).

Shuningdek, zamonaviy hikoyachilikda syujet va uslub orasidagi bog‘liqlik o‘ta mustahkam. Syujet yozuvchining qanday uslubda fikr bildirishi bilan uyg‘unlashadi. Masalan, Erkin A’zam ramziy va ichki psixologik syujetlar orqali o‘zining sokin, ramzli, chuqur ohangdagi uslubini mustahkamlagan bo‘lsa, Muhammad Ali ijtimoiy-falsafiy muammolarni istehzoli va paradoksal uslubda ifodalagan. Bu esa syujet va uslub orasidagi uzviylikni ko‘rsatadi.

Shunday qilib, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi syujet va uslub yangilanishlari orqali milliy adabiy tafakkurning chuqurlashuviga xizmat qilmoqda. Bu yangilanishlar xalqning ruhiy-ma’naviy olamini anglash, zamonaviy insonning holatini ifodalash, global adabiy jarayonlarga integratsiyalashishning badiiy ko‘rinishidir. Yaqin istiqbolda esa o‘zbek hikoyasining yanada ko‘proq eksperimentallikka, badiiy kontseptualizmga va jahon adabiyoti bilan uzviy bog‘lanishga yo‘naltirilishi kutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Аъзамов, Э. (2015). Сандиқ: Ҳикоялар. Тошкент: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy iyi.
2. Али, М. (2019). Қор одам: Ҳикоялар. Тошкент: Yangi asr avlodi.
3. Дўстмуҳаммад, Х. (2020). Бир кунлик дунё. Тошкент: Sharq nashriyoti.
4. Жўраев, А. (2022). Замон руҳи ва адабий тафаккур. Тошкент: Yangi asr avlodi.
5. Эрматов, Ш. (2018). "Ҳикоя жанридаги замонавий тенденциялар". Ўзбек милии ва адабиёти, №4, 45–50-бетлар.
6. Каримов, Н. (2013). Адабиёт назариясига кириши. Тошкент: Fan nashriyoti.
7. Назаров, Қ. (2011). Замонавий адабиёт ва ижодкор масъулияти. Тошкент: Akademnashr.
8. Абдуллаева, С. (2020). "Ўзбек ҳикояларида модернлик ва постмодернлик аломатлари". Филология масалалари, №1, 88–94-бетлар.
9. Барт, Р. (1966/2003). *Narrative Discourse: An Essay in Method*. Translated by Jonathan Culler. Oxford: Blackwell Publishing.
10. Лотман, Ю.М. (1970/2002). *Структура художественного текста*. Москва: Искусство.